

SPECIFIC FEATURES OF TRANSLATION IN FICTION

Matenova A. K.

PhD student of the

Faculty of Foreign Philology, the department of

“Theory of translation and Comparative Linguistics”

of National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671775>

Annotation: This article discusses in detail the difficulties and problems that arise in literary translation. The study focuses on the translation of lacunae and realities that pose difficulties for the translator and require strong knowledge.

Keywords: literary translation, lacuna and real, linguistic cultures, translation, translation, translator.

BADIY TARJIMANING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy tarjimada yuzaga keladigan qiyinchilik va muammolar haqida batafsil yoritilgan. Tadqiqotda tarjimon uchun qiyinchilik tug'diradigan va kuchli bilim talab qilinadigan lakuna va realiyalar tarjimasiga alohida urg'u qaratiladi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, lakuna va realiyalar, lingvomadaniyat, xususiyat, tarjima. tarjimon.

Ma'lumki, badiiy tarjimaning to'laqonli chiqishida asliyat mansub xalqqa xos so'z va tushunchalar-realiyalar muhim rol o'ynaydi. “Realialarga milliy taomlar, kiyim-kechaklar, milliy cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, nomlar tahalluslar, laqablar, Shahar, qishloq xususiyatlari, me'morchilik, geografik nomlar, tabiiyat manzaralari, hayvon va o'simliklarning nomlari, Daraja, unvon, tabaqa va boshqa bo'linishlarni ifodalovchi so'zlar, muassasalar, tashkilotlar, diniy marosimlar va boshqa etnografik belgilarni bildiruvchi so'z va iboralar kiradi.”¹.

Binobarin, tarjimada asarning milliy o'ziga xosligini saqlash tarjimondan nafaqat asliyatning tilini bilishni, ayni paytda o'sha tilda so'zlashuvchi xalq o'tmishi, buguni, dini, madaniyati, adabiyoti, turmush tarzi, an'ana va urf-odatlaridan ham yetarli darajada xabardor bo'lishni taqozo etadi. Realiya va lakunalarning tarjimasini o'zbek kitobxonlariga tushunarli, aniq va Ravshan qilib yetkazish shu bilan birga o'zbekcha tarjimada ularning milliy o'ziga xosligini saqlash o'ta mashaqqatli ish bo'lib, tarjimondan yuksak ma'suliyat va jiddiy mehnatni talab qiladi.

Xolid Husayniy asarlaridagi lacuna va realiyalarning rus va o'zbek tillarida qanday aks etganligini tahlil etar ekanmiz, ayni paytda, mazkur tarjimalarning yutuq va kamchiliklariga ham to'xtalib o'tamiz. A.V. Fedorov tarjimada realiyalarni aks ettirishning uch xil yo'lini ko'rsatadi:

1. Translitteratsiya (to'la yoki qisman), realiya bo'lib kelgan so'zni bevosita fonetik moslashtirish yoki so'z negiziga o'z tilining qo'shimchalarini qo'shib berish;
2. Predmetni ifodalash uchun tilda real mavjud bo'lgan unsurlardan foydalangan holda yoki morfologik biriktirish yo'li bilan yangi so'z yoki so'zlar birikmasini hosil qilish;

¹ Fayzullayeva R. Yo'llar yiroq, ko'ngillar yaqin. 257-b.

3. Boshqa tildagi realiyalarni ifoda etuvchi soʻzlarni vazifasi jihatidan oʻsha realiyaga yaqin turgan (garchi aynan boʻlmasa-da) soʻzlar yordamida tarjima qilish².

Diniy realiyalarni toʻgʻri aks ettirishning asosiy mezonini ularni uslubiy vazifasini toʻgʻri aniqlashdan iborat. Shuning uchun tarjimon, eng avvalo, matn mohiyatini oʻqib, har bir soʻzning mazmuni va uslubiy salmogʻini taroziga solib korishi lozim.

Agar realiyalar mazmuni va uslubi jihatidan asosiy vazifani bajarsa va kitobxonning diqqat eʼtiborida tursa, ularni tarjima qilishning eng qulay usuli transliteratsiyadir. “Transliteratsiya qoʻllanilishi tarjima tilida realiyalarga toʻgʻri ekvivalentlarning yoʻqligi bilan izohlanadi. Bu hol, birinchidan, ikki xalqning tarixiy taraqqiyot yoʻllari va hayotning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari turlicha boʻlganligi, ikkinchidan realiyalarning koʻp ishlatilishi, tarjima tili ularni hazm qila olmasligi va oʻquvchi uchun realiyalar ajib tushunmovchiliklar keltirish bilan tushuniladi”³.

Transliteratsiya qilingan realiyalar tarjima qilinayotgan tilni boyitishga xizmat qiluvchi omillardan hisoblanadi. Lekin, tarjimada bunday realiyalarga tarjimon tomonidan izoh keltirilsa maqsadga muvofiq boʻlar edi. Agar realiyalarning oʻrnini bosadigan munosib soʻz va tushunchalar boʻlmaganligi uchun tarjimonlar realiyalarni transliteratsiya yoʻli bilan keltirib, ularga izoh berish usulidan foydalangani maqul. Realialar alohida koʻzga tashlanmaydigan va neytral ishlatilgan hollarda esa ularni analogiya (tarjima qilinayotgan tildagi oʻxshashlik)lar orqali berish mumkin.

Realialar tarjimasi tarjimashunoslikning muhim masalalaridan boʻlib, hozirga qadar u umumiy aspektda oʻrganib kelindi. Holbuki uning har bir koʻrinishi alohida tadqiqotlarga material beradi. Realialar tarjima jarayonida eng koʻp muammo tugʻdiradi va tarjimashunoslikda eng kam oʻrganilgan sohalardan biridir.

Rustam Jabborov tomonidan amalga oshirilgan tarjima oʻzining badiiy mukammalligi bilan alohida ajralib turadi. Bu tarjima sifatining ancha koʻtarilganidan dalolat beradi. Rustam Jabborov tajribali tarjimon ham realiya va lakunalarini tarjima qilishda, kitobxonga toʻgʻri yetkazishda ayrim qiyinchiliklarga duch kelganining guvohi boʻlamiz. Fikrimizning dalili sifatida quyidagi misollarga murojat qilamiz. Asar rus tilidan oʻzbek tiliga tarjima qilinganligi uchun ham rus tili variantiga murojat qilamiz.

“Hozirgi badiiy tarjima nazariyasi asl nusxaning mazmuni va maʼnosinigina emas, balki milliy va tarixiy fazilatlarini saqlash zarur, deb hisoblaydi”⁴. chunki ularda u yoki bu xalqning oʻziga xos xususiyatlari aks etadi. Toʻgʻri din, madaniyat, tusrmush tarzi, anʼana va urf-odatlar, hatto til jihatidan umumiy mushtarakliklarga ega xalqlar ham bor. lekin koʻpchilik xalqlar oʻrtasida tildan tortib dingacha, turmush tarzidan urf-odatlarigacha tafovut va hatto ziddiyatlar mavjudki, bu hol tarjima jarayonida qator muammo va murakkabliklarni keltirib chiqaradi.

Tarjimada asliyatning milliy oʻziga xosligini saqlash tarjimondan realiya va lakunalarining barcha turlari va koʻrinishlaridan chuqur xabardor boʻlishni taqozo etadi. U yoki bu asarni tarjima qilishda mazkur tarjimoni oʻqiydigan kitobxonning asliyat tilida soʻzlashuvchi xalqning hayoti va urf-odatlari bilan qanchalik tanish ekanligini ham hisobga olmoq lozim. Tarjimonning dunyoqarashi keng, bilim zahirasi katta boʻlishi kerak.

² Фёдоров А.В. Введение в теорию перевода. М., 1983.с.159-160.;

Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. М., 1987.с.151.

³ Hamroyev H. Milliy soʻzlar-realiyalar va badiiy tarjima/Tarjima madaniyati.T.,1982.159-b.

⁴ Komorovski Ya. Oʻzbek-rus-slovak tillarida//Tarjima sanʼati. 3-kitob. 261 b.

Ma'lum bo'ladiki, goh tarjima jarayonida asliyat matnini soddalashtirish va milliyalashtirishga urinish, goh diniy ta'limotlarni yetarlicha bilmaslik natijasida boshqa dinga mansub xalqlar adabiyotidan tarjimalarda jo'plab xatô-nuqsonlarga yo'l qo'yilmoqda.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anokhina, T. 2013. The linguistic lacunicon: Cognitive mapping in schemes and terms. *J. of Ed. Cult. and Society*, 1, 166-174.
2. Azarova, O. A. & Kudriashov, I. A. 2016. Emotions, language, cognition: the problem of interdependence in an interdisciplinary perspective. *Int. Res. J.*, 10-3/52, 6-9.
3. Bykova, G. V. 2006. Phenomenon of lacunarity: Some results of theoretical apprehension and prospects of lexicographic presentation in Lakunen-Theory.
4. Hamroyev H. Milliy so'zlar-realiyalar va badiiy tarjima/Tarjima madaniyati.T.,1982.159-b.
5. Kislitsyna, N. N. 2021. Lacunae in language and speech: Intercultural and textual aspects. *The European Proceedings of Social & Behavioural Sciences*. <https://doi.org/10.15405/epsbs.2021.02.02.62>.
6. Komorovski Ya. O'zbek-rus-slovak tillarida//Tarjima san'ati. 3-kitob. 261 b.
7. Markovina, I. Y. 2011. The theory of lacunae in the study of problems of intercultural communication. *Ethnopsycholinguistic Basis*. LAP LAMBERT Academic Publishing.
8. Matenova A. 2023. Lacunae in the works of Khalid Husayni.
9. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3/6, 21-25.
10. Nizomova M. 2023. The issue of formation of communicative pragmatic direction in terminology. *International Scientific and Current Research Conferences*, 83-86.
11. Onyshchuk, M. 2017. Cross-lingual lacunae within the linguistic persona paradigm (The English-Ukrainian language-pair specific contrastive research). *Annals of the University of Craiova Series Philology Linguistics*, 39/1-2, 135-144.
12. Фёдоров А.В. Введение в теорию перевода. М., 1983.с.159-160.;
13. Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода. М., 1987.с.151.